



“O’zekspomarkaz” MKK” AJ Boshqaruv raisining BUYRUG‘I

2025-yil 7-fevral

14-ICH

Toshkent sh.

**Tovarlarni sotib olish va “O’zekspomarkaz” MKK” AJ xo’jalik faoliyati sohasidagi
ishlarni bajarish bo'yicha doimiy xarid Komissiyasini shuningdek, ko'rgazma
ishtirokchilariga imtiyoz va chegirmalar berish bo'yicha doimiy Komissiya tuzish
to'g'risida**

O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi 3953-sonli O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi 37-sonli “Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralarini to‘g‘risida”gi qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, shuningdek, “O’zekspomarkaz” MKK” AJ Ustavi, ichki normativ hujjatlariga muvofiq, xo’jalik faoliyati davomida ishlarni bajarish, sotib olish va xizmat ko’rsartish bo'yicha Boshqaruv raisining topshiriqlari va ko'rsatmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarish maqsadida,

BUYURAMAN:


1. Respublika tovar-xomashyo birjasida elektron xaridlar bo'limgan taqdirda, korporativ tovarlar sotib olishni tashkil etish va ishlarni bajarish bo'yicha doimiy xarid Komissiyasi 1-ilovaga muvofiq tuzilsin (bundan buyon matnda - Komissiya).
2. Mahalliy ishtirokchilardan yetkazib beruvchilarni tanlashda komissiya eng yaxshi takliflarni (yuqori sifat, past narx) hisobga olsin.
3. Ko'rgazma ishtirokchilariga imtiyozlar va chegirmalar berish bo'yicha doimiy Komissiya (bundan buyon matnda - Chegirmalar bo'yicha komissiya) 2-ilovaga muvofiq tuzilsin.
4. Chegirmalar bo'yicha Komissiya imtiyozlar va chegirmalar berishda, mijozlarning doimiy ishtirokchiligini, O'zbekiston Respublikasi hukumatining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va tegishli ko'rsatmalarini hisobga olsin.
5. Qabul qilingan barcha qarorlar uchun Komissiyalarning har bir a'zosiga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq shaxsiy javobgarlik belgilansin.
6. “O’zekspomarkaz” MKK” AJ Bosqaruv raisining 2023-yil 4-sentabr kunidagi 66-ICH-sonli buyruq o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.
7. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o’z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi

O. Saidxonov

Loyiha kiritildi:

Yuridik bo'lim boshlig'i



A.Sadikov

Kelishildi:

Moliya va korporativ boshqaruv
bo'yicha direktori



S.Mutolibxonov

Ko'rgazma majmuasi direktori



S.Kudratov

Texnik direktor



M.Obidov

Ma'muriy-xo'jalik ishlari va
Sog'lomlashtirish-ko'ngilochar
majmuasini rivojlantirish bo'yicha direktor



A.Sherxodjaev

Bosh buxgalter



E.Amirova

Marketing bo'limi boshlig'i



Sh.Shaismailov

Moddiy-texnika ta'minoti
xizmati boshlig'i



A.Sindarov

Tanishtirildi:

Moddiy-texnik ta'minot
xizmati muhandisi



J.Jonbusinov

Boshqaruv raisining
2025-yil 07-fevraldag'i
14-ICH buyrug'iiga 1-ilova

Respublika tovar-xomashyo birjasida elektron xaridlar bo'limgan taqdirda, korporativ tovarlar
sotib olishni tashkil etish va ishlarni bajarish bo'yicha doimiy xarid Komissiya
TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Komissiya tarkibi	Lavozimi
1.	Mutolibxonov S.S.	Komissiya raisi	Moliya va korporativ boshqaruv bo'yicha direktori
2.	Kudratov S.R.	Komissiya a'zosi	Ko'rgazma majmuasi direktori
3.	Obidov M.M.	Komissiya a'zosi	Texnik direktor
4.	Sherxodjaev A.A.	Komissiya a'zosi	Ma'muriy-xo'jalik ishlari va Sog'lomlashtirish-ko'ngilochar majmuasini rivojlantirish bo'yicha direktor
5.	Sadikov A.R.	Komissiya a'zosi	Yuridik bo'lim boshlig'i
6.	Sindarov A.A.	Komissiya a'zosi	Moddiy-texnika ta'minoti xizmati boshlig'i
7.	Nasritdinov S.F.	Komissiya a'zosi	Ta'mirlash-xo'jalik bo'lim boshlig'i
8.	Jonbusinov J.	Kotib	Moddiy-texnika ta'minoti xizmati muhandisi

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar kiritiladi.

Xarid komissiyasining mas'ul kotibi ovoz berish huquqiga ega emas.